XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI
QARORI

2024 - yil 7 - mart VI-77-29-11-161-K/24 O‘zbekiston tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvar kungi "2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholini bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida"gi PQ-7-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozli resurslar, mexanizm va yengilliklardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida rasmiy band bo‘lgan fuqarolarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 9 yanvardagi “2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7 sonli qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan mas’ul vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi ma’qullangan.

Shuningdek, viloyatlar hokimliklari ikki hafta muddatda tuman (shahar)lar kesimida choraklik maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqib, ularning mahalliy Kengashlarda muhokamadan o‘tkazilishini va hududiy (manzilli) dasturlarning qabul qilinishini ta’minlashi belgilangan.

Shunga ko‘ra, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limining 2024 yil 31 yanvardagi 34-sonli xat bilan murojaat qilib, tumanda 2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi loyihasi (keyingi o‘rinlarda – Dastur loyihasi) va bu borada amalga oshiriladigan ishlar, ko‘riladigan ta’sir choralari yuzasidan axborot kiritib, mazkur masalani xalq deputatlari tuman Kengashida muhokama qilish va Dastur loyihasini qabul qilishni so‘ragan.

Xususan, tumanda 2024 yil uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan

band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlari shakllantirilib, shunga ko‘ra tuman bo‘yicha 20 736 nafar aholini doimiy (6 219), vaqtinchalik (3 471) va mavsumiy(11046) ishlarda band qilish rejalashtirilgan.

Ushbu yaratiladigan yangi ish o‘rinlarini oylik choraklik va yillik prognoz ko‘rsatkichlari tarmoqlar kesimida ishlab chiqildi.

Jumladan, har bir dasturga kiritilgan ish o‘rinlari tashkil etuvchi sub’yektlarni tarmoq rejalari ishlab chiqilgan. Bunda:

1-chorakda 1 412 ta (yillik rejaning 6,8%) yanvar oyida 451 ta, fevral oyida 524 ta, mart oyida 437 ta,

2-chorakda 8 963 ta (yillik rejaning 43.3 %) aprel oyida 2768 ta, may oyida 3 ta, 191 ta, iyun oyida 3004 ta ;

3-chorakda 7 805 ta (yillik rejaning 37,6 %) iyul oyida 3 648 ta, avgust oyida 2 307 ta, sentyabr oyida 1 850 ta;

4-chorakda 2 556 ta (yillik rejaning 12,3 %) oktyabr oyida 1 009 ta, noyabr oyida 811 ta, dekabr oyida 736 ta ish o‘rinlari yaratish rejalashtirilib olingan.

Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 6 300 ta shundan, (3187 ta doimiy, 3113 ta vaqtinchalik)

Investisiya va mahalliy sanoat loyihalari hisobiga 1 676 ta doimiy

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida jami 12 220 ta, shundan (1174 ta doimiy , 11046 nafar) aholi mavsumiy

Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida 540 ta shundan (182 ta doimiy, 358 ta mavsumiy)yangi ish o‘rinlari yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozli resurslar, maxanizm va yengilliklardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi bandligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida rasmiy band bo'lgan fuqarolarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvar kungi "2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholini bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida"gi PQ-7-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 9 yanvardagi “2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7 sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan, viloyatlar hokimliklari ikki hafta muddatda tuman (shahar)lar kesimida choraklik maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqib, ularning mahalliy Kengashlarda muhokamadan o‘tkazilishini va hududiy (manzilli) dasturlarning qabul qilinishini ta’minlashi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tumanda 2024 yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish bo‘yicha shakllantirilgan prognoz ko‘rsatkichlari to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘lim boshlig‘i E.Bozorovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.Quyidagilar:

2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari *1-ilovaga* muvofiq;

2024-yilda investisiya loyihalari hisobiga aholini doimiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari *2-ilovaga* muvofiq;

2024-yilda xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash prognoz ko‘rsatkichlari *3-ilovaga* muvofiq;

2024-yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari *4-ilovaga* muvofiq;

2024-yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish *5- ilovaga* muvofiq;

2024-yilda 2 million aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari *6- ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

5. Maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan quyidagi idoralar rahbarlari tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin:

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi O‘zbekiston tunmani bo‘lim boshlig`i (D.Hamzayev):

- yirik va hududiy investisiya loyihalarni amalga oshirish hisobiga 1 676 ta ish

o‘rni yaratishga;

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari hamda Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i (M.Sattorov):

- xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi bo‘yicha 6 300 ta ish o‘rni yaratishga;

Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (M.Maxkamov), tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (Y.Irgashev)

- qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha 12 220 ta ish o‘rni yaratishga;

Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Ismoilov, tuman Qurilish va uy-joy kommunal ho‘jaligi bo`limi (R.Xasanov)

- qurilish yo‘nalishi bo‘yicha 540 ta ish o‘rni yaratishga;

Bunda, ushbu bandda ko‘rsatilgan mas’ul tuman hokimi o‘rinbosari, idora va xo‘jalik birlashmalari hamda bo‘lim rahbarlari har oy yakuniga ko‘ra keyingi oyning birinchi sanasiga qadar soliq organlari ma’lumotlar bazasi bilan solishtirgan holda tegishli ma’lumotlarni umumlashtirish uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga taqdim etib boriladi.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo`limi (E.Bozorov), tuman Soliq inispeksiyasi (U.Fozilov), tuman Statistika bo‘limi (J.Madrahimov)

- mas’ul davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) hokimliklari tomonidan maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida, samarali va tizimli bajarilishini nazorat qilsin va muvofiqlashtirib borsin.

Bunda, har haftada “Hokimlik soatlari” va boshqa idoraviy kengaytirilgan yig‘ilishlarda maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilishi borasida mas’ullar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy muhokama etib boriladi hamda har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib boriladi.

7.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Bozorov)ga :

mavjud ish o‘rinlari bo‘yicha aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat yarmarkalarining tashkil etish, kasb-hunarga o‘qitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu

borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini ko‘rib borsin.

Bunda,

mehnat yarmarkalarini samarali tashkil etish, yarmarkalarga aholini ko‘proq qismini qamrab olish orqali ularni ishga joylashtirish; ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlaridan maqsadli va samarali foydalanish;

kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini ko‘proq jalb qilish hamda mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida va samarali o‘tishini doimiy nazorat qilib borish;

mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir ishlab chiqish;.

har oyning 15-sanasiga qadar Dastur doirasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari va bandligi ta’minlangan aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni idoralararo elektron axborot almashinuvi orqali Soliq boshqarmasiga taqdim etib borish vazifalari yuklansin.

8. Tuman Soliq inspeksiyasi (U.Fozilov) har oyning 20-sanasiga qadar aholi bandligi va ish o‘rinlari hisobining haqqoniyligini tekshirib, natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni tuman hokimligi hamda xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borsin.

9. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Bozorov), Tuman Soliq inspeksiyasi (U.Fozilov) hisobot davrida yaratilgan ish o‘rinlari soni tahlili jarayonida tegishli sohalar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlarini xisobotlarga takroran qo‘shish orqali ko‘rsatkichlarni sun’iy oshirish holatlarini oldini olish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘rib borsin.

10. O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi O‘zbekiston tunmani bo‘limi (D.Hamzayev), Tadbirkorlik sub’yektlarining huquqlari va qonun manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha viloyat vakili (M.Po‘latov), Iqtisodiyot va moliya bo’limi (M.Sattorov), Investisiyalar, sanoat va savdo bo‘limi, tegishli bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda bir hafta muddatda hududlarda sayyor qabullar o‘tkazish reja-jadvalini tasdiqlasin, tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan ko‘tarilgan masalalarni joyida hal qilish choralarini ko‘rib borsin va murojaatlar tahlili asosida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tuman hokimligiga har oyda takliflar kiritib

borsin.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Bozorov) bilan birgalikda joriy yilning 1- choragida tashkil etiladigan mehnat yarmarkalari reja-jadvalini ishlab chiqilib, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali keng jamoatchilikka ma’lum qilsinTuman

12. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Bozorov)ga :

mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan nazorat tadbirlarini samarali tashkil etib borsin, aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilib, kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora tadbir belgilab borish;

yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalariga hisobotlari taqdim etib borish vazifasi yuklansin.

13. Xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari raislari maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tarmoqlar kesimida nazorat qilish bo‘yicha alohida reja ishlab chiqsin hamda doimiy komissiya yig‘ilishlarida doimiy ravishda muhokama qilib borsin.

14. Tumanda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish maqsadida:

2024 yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - Xalq deputatlari tuman Kengashining “Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan – Xalq deputatlari tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishi yuzasidan - Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha” hamda “Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyalari biriktirilsin.

15. Xalq deputatlari tuman Kengashlari deputatlari O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan huquq va majburiyatlaridan foydalangan holda o‘z saylov okruglarida 2024 yilda viloyatda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash dasturi ijrosi yuzasidan qat’iy deputatlik nazorati tadbirlarini olib borsin hamda aniqlangan muammolar yuzasidan doimiy ravishda tegishli doimiy komissiyalar majlislari hamda Kengash sessiyalariga kiritib borsin.

16. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (D.Jabborov) tasdiqlangan Dastur bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ijtimoiy tarmoqlarda hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

17. Mazkur qarorni nazorat Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

18. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Tuman hokimi **Sh.Yuldashev**

Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman Kengashining
2024-yil 7-martdagi
VI-77-29-11-161-K/24-son qaroriga
1-ilova

O 'zbekiston tumanida 2024 yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy TAQSIMOTI

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*														
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
16	**O‘zbekiston tumani**	**JAMI**	**20736**	**1412**	**451**	**524**	**437**	**8963**	**2768**	**3191**	**3004**	**7805**	**3648**	**2307**	**1850**	**2556**	**1009**	**811**	**736**
		doimiy	**6219**	**975**	*250*	*353*	*372*	**1 694**	*537*	*540*	*617*	***2 321***	*756*	*773*	*792*	**1 229**	*488*	*380*	*361*
		vaqtinchalik	**3471**	**437**	*201*	*171*	*65*	**837**	*277*	*277*	*283*	***1 318***	*340*	*438*	*540*	**879**	*297*	*297*	*285*

Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman Kengashining
2024-yil 7-martdagi
VI-77-29-11-161-K/24-son qaroriga
2-ilova

O`zbekiston tumanida 2024 yilda Investisiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining oyma-oy TAQSIMOTI

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
16	O‘zbekiston tumani	*doimiy*	**1676**	**348**	36	151	161	**469**	131	131	207	**705**	235	235	235	**154**	72	38	44

Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman Kengashining
2024-yil 7-martdagi
VI-77-29-11-161-K/24-son qaroriga
3-ilova

O`zbekiston tumanida 2024 yilda Moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy, vaqtinchalik va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy TAQSIMOTI YIG‘MASI

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
16	O‘zbekiston tumani	**JAMI**	**6300**	**726**	**337**	**246**	**143**	**1579**	**526**	**527**	**526**	**2391**	*681*	**794**	**916**	**1604**	**582**	**511**	**511**
		doimiy	***3187***	***355***	*158*	*97*	*100*	***850***	*283*	*284*	*283*	***1 193***	*381*	*396*	*416*	***789***	311	240	238
		vaqtinchalik	***3113***	***371***	*179*	*149*	*43*	***729***	*243*	*243*	*243*	***1 198***	*300*	*398*	*500*	***815***	271	271	273

Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman
Kengashining
2024-yil 7-martdagi
VI-77-29-11-161-K/24-son qaroriga
4-ilova

O`zbekiston tumanida 2024 yilda aholini Qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy

TAQSIMOTI YIG‘MASI

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladi-gan yangi ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*														
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
16	O‘zbekiston tumani	**JAMI**	**12220**	**239**	**45**	**94**	**100**	**6747**	**2057**	**2479**	**2211**	**4529**	**2672**	**1218**	**639**	**705**	**315**	**226**	**164**
		doimiy	***1174***	***239***	*45*	94	100	***315***	103	105	107	***363***	120	122	121	***257***	91	92	74
		mavsumiy	***11046***	***0***				***6 432***	1954	2374	2104	***4 166***	2552	1096	518	***448***	224	134	90

Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman
Kengashining
2024-yil 7-martdagi
VI-77-29-11-161-K/24-son qaroriga
5-ilova

O'zbekiston tumanida 2024 yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy

TAQSIMOTI YIG‘MASI

e	**Tuman (shahar) nomi**	**Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi**	**Ish o‘rinlari jami**	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			**2-chorak**	*shundan*			**3-chorak**	*shundan*			**4-chorak**	*shundan*		
					yanvar	**fevral**	**mart**		**aprel**	**may**	**iyun**		**iyul**	**avgust**	**sentyabr**		**oktyabr**	**noyabr**	**dekabr**
A	**B**	**V**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**	**17**
16	O‘zbekiston tumani	**JAMI**	**540**	**99**	**33**	**33**	**33**	**168**	**54**	**54**	**60**	**180**	**60**	**60**	**60**	**93**	**40**	**36**	**17**
		doimiy	**182**	***33***	*11*	*11*	*11*	***60***	*20*	*20*	*20*	***60***	*20*	*20*	*20*	***29***	14	10	5
		vaqtinchalik	**358**	***66***	*22*	*22*	*22*	***108***	*34*	*34*	*40*	***120***	*40*	*40*	*40*	***64***	26	26	12